

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti



REFERAT

MAVZU: *INTERNETDA ETIKA MASALASI*

Tayyorladi: _____

Qabul qildi: _____

Internet hayotimizga shunchalik tez kirib kelib, turli sohalarni chulg'ab oldiki, ko'pincha biz uning buguni va, ayniqsa, ertangi kunini o'zimizga aniqroq tasavvur ham qila olmaymiz. Hozirning o'zida Internet va umuman kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq yangi kasblar, yo'nalishlar vujudga keldi. Uyda o'tirib ishlash, turli yumushlarni bajarish, sotish va xarid qilish, kutubxona va muzeylarning ma'naviy boyligidan bahramand bo'lish, bevosita aloqada dunyoning u chekkasidagi tanish-bilishlar bilan muloqot qilish va bunda faqat yozish va gapirish bilan cheklanmasdan, bir-birimizni ko'rib turish kabi ko'plab imkoniyatlar shular jumlasidandir.

Internet olami kasbimiz – jurnalistikaga ham o'ziga xos o'zgarishlar olib keldi. Veb makonida tobora ortib borayotgan gazetalar, axborot agentliklari, turli mazmundagi saytlar, ya'ni on-layn nashrlar uchun xabar yo maqola yozish qog'ozda bosilib chiqayotgan, ya'ni off-layn nashrlardagiga nisbatan ancha farq qiladi. Bu va boshqa tafovutlar tufayli jurnalistikaning yangi yo'nalishi internet-jurnalistika yoki veb-jurnalistika paydo bo'ldi. Uning o'ziga xos jihatlarini chuqurroq o'rganish maqsadida AQShning Nyu-York universitetida bo'ldim. Jurnalistika bo'limining professori Mitchel Stifens bilan bir necha marta uchrashib, suhbatlashdik. U yangiliklar tarixi va yangilik (news) bo'yicha ko'zga ko'ringan mutaxassis sanaladi. Ushbu mavzularning chuqur tadqiqiga bag'ishlangan qator kitoblar yozgan. Professor Stifens keyingi paytlarda internet-jurnalistikaning taraqqiy etib borishi sohaga qanday ta'sir qilayotganini jiddiy o'rganmoqda. Jumladan, 2006 yilda chop etilgan va elektron ommaviy axborot vositalarida yangiliklar muammosiga bag'ishlangan kitobining to'rtinchi nashri «Veb va etika» deb atalgan alohida bo'lim bilan to'ldirilgan. Bu bejiz emas, albatta. Internet bilan tanish, undagi axborot ko'lami va sifatidan xabardor har bir kishi veb-makonda axloq normalariga rioya qilish masalasi qanchalik dolzarblik kasb etayotganligini yaxshi anglaydi. Ushbu bo'limning bir bobida Internetda yangiliklarni yoritishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Internetda axborotning o'ta ko'pligi va rang-barangligi bois o'quvchini aynan sizning materialingizni o'qishga undash ancha og'ir. Buning

uchun yozish usuli, materialni joylashtirish, uning dizayni masalasi kabi jihatlarini inobatga olmasdan iloj yo'q. Veb-nashrlarning boshqa OAV turlaridan asosiy ustunligi ularning tezkorligidadir. Sodir bo'lgan voqea-hodisani o'sha zahotiyoq saytiga joylashtirayotgan, yangiliklarni muntazam, daqiqayu soniyasini ko'rsatgan tarzda o'zgartirib borayotgan nashrlar bisyor. Yuqoridagilarni nazarga olgan holda professor M. Stifensga quyidagi savol bilan murojaat qildim: «Televidenie ixtiro qilinganda ayrimlar endi gazetalarning umri tugaydi, deb bashorat qilgan edi. Ammo, guvohi bo'lganimizdek, bunday bo'lmadi. Endilikda internetning ommalashib borishi an'anaviy ommaviy vositalariga salbiy ta'sir qilajagi xususida fikrlar bildirilmoqda. Ayniqsa, gazetalar bozori kasodga uchrashishi tez-tez tilga olinmoqda. Siz bu haqda qanday fikrdasiz?» Suhbatdoshim gazeta voqealar bayonini internetga o'xshab tezkorlik bilan yetkaza olmasligini uqtirib, uning tahririyati ana shu voqelikdan kelib chiqqan holda ish yuritishi zarurligini ta'kidladi. Demak, yangilik orqasidan quvishda gazeta internetga yetolmasligini anglab, berayotgan materiallarining mazmunini kuchaytirishi lozim. M. Stifensning fikricha, gazeta asosiy e'tiborni tahliliy maqolalarga qaratishi kerak bo'ladi. Nyu-York universitetida internet-jurnalistikaning o'qitilishi bilan qiziqdik. Ma'lum bo'lishicha, yaxlit bir o'quv predmeti sifatida bu dars o'tilmas ekan. Uning har bir qismini alohida mutaxassis dars berar ekan. Mashg'ulotlar qanday borishi haqida aniq xulosa chiqarishimiz uchun professor Stifens boshqa bir kasbdoshining darsida qatnashishni maslahat berdi. Professor Patrik Fillips internet-jurnalistikaning alohida yo'nalishi sifatida «Blogging» o'quv fanini o'tar ekan. Unda blog to'g'risida, uni qanday tuzish, qanday qilib yuz minglab blog ichida aynan siz tuzganingiz o'z o'rnini topa olishi xususida so'z yuritilarkan. Dars 15 hafta, haftasida bir marta 4 soat davomida o'tilarkan. Shunisi e'tiborga loyiqki, aksariyat darslarga soha mutaxassislari jalb etilar ekan. Biz borgan kuni darsni professor Fillipsning o'zi boshlab berdi. Avvalida oldin o'tilgan darsni talabalarga eslatdi va bugungi darsga blog tuzib, uning orqasidan millioner bo'lgan Piter Roxas ismli kishi taklif etilganligini bildirdi.

Mehmonga har bir talaba savol tayyorlashini, imkoniyatdan foydalanib qolishni, ya'ni daromad keltiradigan blog tuzish uchun nimalar zarurligini undan so'rashlarini uqtirdi. Bir soatdan so'ng darsxonaga Piter Roxas kirib keldi. U jurnalistika bo'yicha ma'lumoti yo'qligini, vaqtida biznes-maktabni tugatib, ishni internetga yangi texnologiyalar haqida maqolalar tayyorlab berishdan boshlaganini ta'kidladi. 2001 yilda bir do'stining taklifi bilan shaxsiy blog tashkil etgan Roxas yangi texnika va texnologiyalar haqida ma'lumot joylashtira boshlaydi. U ayni paytda ushbu mavzuga qiziqish kattaligini, ayniqsa, yoshlar doimo kompyuter olamidagi o'zgarishlardan xabardor bo'lib turishga intilishini inobatga olgan edi. Ko'p o'tmay blogni kirib o'qiydiganlar soni ortdi. Har kuni yuz minglab qiziquvchi undagi axborotdan bahramand bo'la boshladi. Bunga javoban reklama beruvchilar ham ko'paydi. Natijada blog P. Roxas uchun salmoqli daromad manbaiga aylandi. Talabalar Piter Roxasga ko'plab savollar berishdi. Ularni asosan yaxshi blog tuzish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim, sifatli blogning o'zi nima, uning mezonlari nimalardan iborat, qanday qilinsa blog foyda keltiradigan bo'ladi kabi savollar qiziqtirdi. Mehmon barcha savollarga batafsil javob qaytarib, oxirida talabalarga murojaat qilib, shunday dedi: «Bo'lajak jurnalist uchun o'z blogini tuzish juda foydali, chunki muntazam yozib turish amaliy mashq sifatida kerakli ko'nikmalarni shakllantiradi va rivojlantiradi». Ushbu darsga qatnashib, mavzuga qarab soha mutaxassisini jalb etish darsning qiziqarli, mazmunli va sifatli o'tishini ta'minlashiga guvoh bo'ldik. Umuman, Nyu-York universitetida dars jarayoni bitiruvchilar diplom olgandan so'ng yana bir-ikki yilini kasb asoslarini o'rganishga sarflamasdan, birdaniga ishga kirib ketishlariga qaratilgan.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jamiyatimiz hayotiga jadal kirib kelishi, barcha sohalarda bo'lgani kabi, jurnalistikada ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda va uning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada jahon axborot va kommunikatsiya tarmog'i hisoblangan Internetning ahamiyati benihoya kattadir. Internet soha faoliyatiga ijobiy ta'sir etibgina qolmay, balki yangi ko'rinishdagi OAV ning

shakllanishiga ham olib keldi. Bu WWW nomlari bilan boshlanuvchi elektron axborot nashrlaridir. Ularni turli nomlar bilan atash mumkin: axborot sayti, elektron nashr, Internet nashri va hokozo. Internetning O'zbekiston segmentida ham bunday nashrlar ko'pchilikni tashkil etadi. Internet nashrlarining an'anaviy OAV ga nisbatan jiddiy raqobatni yuzaga keltirayotgani ham ayni haqiqat. Chunki, u o'zining tezkorligi, interaktivligi, multimedia va boshqa ko'plab noyob xususiyatlari tufayli auditoriyaning e'tiborini o'ziga ko'proq tortmoqda. Shuning uchun axborot bozorida o'z mavqeini saqlab qolish va zamon bilan hamnafas bo'lishni xohlagan ko'pgina an'anaviy OAV, Axborot agentliklari ham Internetda o'z axborot saytlariga egalar. Internet ularga nafaqat zamonaviylikni, balki jahon axborot bozoriga integratsiyalashish imkoniyatini ham yaratib bermoqda. Shunday qilib, Internet axborot nashrlarini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: alternativ hamda faqat tarmoqdagina mavjud bo'lgan OAV. Bir qarashda ular o'rtasidagi farq deyarli, sezilmaydi. Ammo alternativ nashrlarning ko'pchiligi Internetga o'z an'anaviy sonlarining elektron nusxalarinigina joylashtiradi. Masalan, "O'zbekiston ovozi" (www.uzbekistonovozi.uz), "infoCOM.UZ" (www.infocom.uz), va boshqalar. Ba'zilari esa bu bilan birga, tezkor axborot xizmatlari ham ko'rsatadi. Masalan, "Труд" (www.trud.ru), "Московские новости" (www.mn.ru). Tarmoq On-line nashrlari esa faqat elektron ko'rinishdagina mavjud bo'lib, an'anaviy nashriga ega emas. Bunday nashrlarga UzReport.com, Uzbekistannews.net, Gazeta.ru va boshqalarni misol qilib, keltirish mumkin. Elektron axborot nashrlarining eng katta afzalligi ularda axborotlar tezkorlik bilan tayyorlanishi va tarqatilishidir. Shuningdek, elektron nashrlar an'anaviy OAV ning barcha xususiyatlarini (matn, ovoz, tasvir) o'zida jamlagan holda, axboriy materialni o'ziga xos tarzda shakllantirish xususiyatiga ega. Ichki va tashqi gipermatnli bog'lanishlar orqali joriy axboriy materialga tegishli qo'shimcha ma'lumotlar ham olish mumkin. Internet nashrlarda an'anaviy axborot janrlaridan o'ziga xos tarzda foydalaniladi. Shu bilan birga, Internetda blis opros, monitoring, reyting kabi yangi janrlar ham paydo bo'lmoqdaki, bu Internet axborot saytlarining yangi

OAV sifatida oʻziga xosligini belgilaydi. Elektron nashrlarning yana bir muhim xususiyati, ularning interaktivligi hisoblandi. Ya'ni, Internetdagi turli aloqavositlari (E-mail, IRC) va koʻp sonli forumlar orqali auditoriya bilan tezkor aloqalar bogʻlash, fikrlar almashish imkoniyati mavjud. Bu esa, auditoriya qiziqishlariga monand axborotlar tayyorlashga imkon yaratadi. Masalan, eng mashhur axborot saytlaridan biri UzReport.com da auditoriya bilan On-line muloqot oʻtkazish uchun maxsus "Aloqalar" boʻlimi mavjud. Foydalanuvchi u yerda oʻz xabarlarini qoldirishi yoki tahririyat bilan tezkor muloqotga kirishishi mumkin. Koʻpchilik elektron axborot nashrlari orqali axborotlar bepul taqdim etilishi bilan birga, pullik axborot xizmatlari ham koʻrsatiladi. Masalan, UzReport.com da maxsus axborotlar uchun pullik obuna xizmati tashkil qilingan. Obunachi saytdan foydalanishda alohida huquq va imtiyozlarga ega boʻlish bilan bir qatorda, elektron pochta orqali eng soʻnggi axborotlarni doimiy ravishda, olib turish imkoniyatiga ham ega boʻladi. An'anaviy OAV da boʻlgani kabi, Internet nashrlarida ham reklama asosiy daromad manbai hisoblanadi. Internetdagi reklama bannerlari matn, ovoz va tasvir xususiyatlarining birlashuvi, ya'ni multimedia xususiyatini oʻzida mujassam etadi va an'anaviy reklamadan oʻzining yuqori ta'sir kuchiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Internet nashrlarida bannerlarni nafaqat "tomosha qilish", balki, zarur boʻlganda, reklama qilinayotgan tovar yoki xizmat haqida toʻliq ma'lumot olish, yo boʻlmasa, tovar yoki xizmat egasining veb-sahifasi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlanish mumkin. Ushbu imkoniyatlar bilan bir qatorda, axborot saytlari faoliyatida ba'zi muammolar ham yoʻq emas. Masalan, ba'zi Internet nashrlaridagi yangiliklar ancha sust yangilab boriladi. Bu ayniqsa, ba'zi oʻzbek an'anaviy nashrlarining elektron versiyalari misolida olib qaraganda, yaqqol koʻzga tashlanadi. Bundan tashqari, Internet nashrlaridagi axboriy materiallar tarkibida ham koʻplab muammoli jihatlarni kuzatish mumkin. Bulardan eng koʻp tarqalganlari: noxolis va ishonchsiz axborotlarning tarqatilishi, axloqiy me'yorlarning buzilishi, mualliflik huquqiga amal qilmaslik va shu kabilardir. Ammo bu holat, asosan, Yevropa axboriy resurslarida uchraydi. Afsuski, ushbu

muammolarning yechimi global tarmoq spesifikasi bilan bog‘liq ko‘pgina sabablar tufayli hamon murakkabligicha qolmoqda. Biroq shuni ishonch bilan ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda global miqyosdagi ko‘pgina muammolarni hal qilishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va texnologik usullar ishlab chiqilmoqda va joriy etilmoqda. Bu esa o‘z ijobiy samarasini beryapti.

Endi eskicha yozib bo‘lmaydi. Global tarmoqning hayotimizga kirib kelishi jurnalistikada yangi yo‘nalishni vujudga keltirdi. Bu internet-jurnalistika bo‘lib, u o‘ziga xos qator xususiyatlarga ega. Tarmoq uchun material tayyorlash jarayonida bu xususiyatlarni inobatga olish o‘ta muhim. Aksar hollarda biz texnikaning rivojlanishi jurnalistikaga qanchalik ta’sir etganligini o‘ylamaymiz ham. Dastlab matbuotning kirib kelishi bilan boshlangan ushbu soha taraqqiyot tufayli radio va telejurnalistikani ham o‘z ichiga olganligi biz uchun odatiy holga aylangan. Aslida esa... Gazeta jurnalistikasi radio jurnalistikasidan, ularning xar ikkalasi telejurnalistikadan farq qilishini anglash uchun soha mutaxassisi bo‘lish shart emas. Ular orasidagi tafovut ko‘p jihatdan texnik imkoniyatlar bilan bog‘lik. Bu hol jurnalistga o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida qator xususiyatlarni inobatga olishga undaydi. Internet-jurnalistika eng yangi texnologiya mahsuli ekanligi sababli o‘zining tezkorligi bilan ajralib turadi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida quyida alohida so‘z yuritilishi bois hozir jurnalist va Internet munosabatining mavjud ikki tomoni haqida so‘z yuritsak. Bir tomondan, global tarmoq jurnalist uchun o‘zi tayyorlagan materialni joylashtirish makoni bo‘lsa, boshqa tomondan, u axborot manbai sanaladi. Tarmoqdagi manbalarning soni, turi shunchalik ko‘pki, ularni hisoblashning imkoniyati yo‘q. Bu esa vaqt, bilim va ko‘nikma talab etadi. Tajribali foydalanuvchi kerakli fakt va raqamlarni, ayrim shaxslar haqidagi ma’lumotni, ularning fikrini topish yo‘llarini biladi. Shu bilan birga, jurnalist uchun tarmoq orqali boshqa shaxs yoki o‘zga mamlakatda bo‘lgan manbadan intervyu olish imkoni mavjud. Internet ommaviy axborot vositasi sifatida ham keng imkoniyatlarini namoyon kilmoqda. Global tarmoqda mavjud ko‘plab axborot agentliklari va veb-gazetalarda faoliyat yurgizayotgan

kasbdoshlarimizga nisbatan «internet-jurnalist», «onlayn-jurnalist» degan iboralar ishlatilmoqda. O'tgan yili Yevropada o'tkazilgan internet-jurnalistika sohasidagi tanlovda 24 mamlakatdan 875 jurnalist qatnashganligi yangi kasb vujudga kelganligini ko'rsatuvchi dalillardan biri ekanligini uqtirish mumkin.

Mamlakatimizda ham bu jarayon jadal taraqqiy eta boshladi. Ayrim gazetalarning elektron ko'rinishlaridan tashqari internet-nashr-lar soni ham ortib bormoqda. Masalan, 2005 yili o'tkazilgan Milliy internet-festivalida «Fan va ta'lim sohasidagi eng yaxshi veb-sayt», «Madaniyat va san'at sohasidagi eng yaxshi veb-sayt», «Eng yaxshi an'anaviy OAV veb-sayti» kabi 14 yo'nalish orasiga «Eng yaxshi davriy Internet-nashr» ham kiritilgan edi. Biz ham jurnalistikaning yangi yo'nalishi paydo bo'lganligini tan olgan holda, uning nazariy va amaliy muammolarini muhokama etishimiz va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan savollarga javob qaytarishga tayyor bo'lishimiz zarur. Shu munosabat bilan internet-jurnalistikaning o'ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha fikr yuritmoqchi edim. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir: Interaktivlik. Manba va foydalanuvchi munosabatida o'zgarish yuz berdi. Boshqacha qilib, gazetaga moslab aytganda, avvalgi gazeta va mushtariylar o'rtasidagi munosabat bir tomonlama aloqa shakli — monologdan ikki tomonlama aloqa tarzi — dialogga aylandi. Kommunikatsiyaning bir tomonlama yo'nalishdagi harakatiga chek qo'ygan veb-jurnalistika sohada tub o'zgarish bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu esa jurnalistlik faoliyatining barcha jabhalarida (u xoh janr bilan, xoh uslub bilan yoki tayyor mahsulotni chop etish bilan bog'liq bo'lsin) o'zgarishlar yasalishiga sababchi bo'ladi. Internet shaxsi noma'lum bo'lgan mavhum o'quvchiga, «kimgadir» axborot yetkazish bilan cheklanmaydi. U o'sha o'quvchining munosabatini, fikrini bilib oladi, undan o'rganadi ham. Shaxsiy yondoshish. Internet axborotni joylashtirishda muayyan foydalanuvchi yoki o'quvchilar guruhi manfaatini inobatga olishga imkon beradi. Foydalanuvchilar sonini hisoblab borish. Internet ma'lum bir saytning yoki undan joy olgan materialning ommaviyligini, boshqacha aytganda, reytingini aniqlash imkoniyatiga ega. Tizimda

joylashtirilgan hisoblagich avtomatik tarzda foydalanuvchilar sonini sanab boradi. Gipermatn yoki matnlarning o‘zaro bog‘liqligi. Internet-nashrda har qanday material gipermatn shaklda joylashtiriladi. U boshqa matnlar bilan havolalar orqali bog‘lanib, ulkan bir matnni tashkil etishga qodirligi uchun shunday atalgan. Gipermatnga har qanday lug‘at yoki entsiklopediya misol bo‘la oladi. Aniqrog‘i, ularni tuzishda gipermatn usulidan ham foydalaniladi. Masalan, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «to‘kmoq» fe’li orqali tuzilgan iboralarga izoh berganda, gipermatnga xos usul qo‘llanilgan. Ya’ni «obro‘yini to‘kmoq» iborasiga «obro‘y» so‘ziga, «ohorini to‘kmoq» iborasiga «ohor» so‘ziga, «savlat to‘kmoq» iborasiga «savlat» so‘ziga havolalar mavjud. Veb-saytlarda axborot hujjatlar to‘plami sifatida saqlanadi. Har bir hujjat boshqacha rangda yoki shriftda ajratilib ko‘rsatilgan so‘z yoki iboralarni o‘z ichiga olgan gipermatndagi havolalardan iborat. Ushbu havolalar orqali boshqa hujjatlardagi axborotga murojaat qilinadi. Shu yo‘l bilan mavzuga yaqin ko‘plab hujjatlarni ko‘zdan kechirish mumkin. Gipermatn o‘quvchini tanishayotgan materialining tegishli qismiga, ushbu saytning yoki boshqa veb-nashrning mavzuga yaqin materialiga murojaat qilishga undaydi. Shu sababli gipermatn yozayotganda allaqachon ma’lum bo‘lgan, ya’ni Internetdan joy olgan ma’lumotni takrorlamaslik, aksincha, havola orqali bu haqda qaerdan kengroq ma’lumot olish mumkinligiga ishora qilish kifoya. Bu o‘quvchiga ham yaxshi. U xohlasa o‘qiyotgan matnini davom ettirib, undan olgan ma’lumoti bilan qoniqadi, kengroq axborot olmoqchi bo‘lsa, boshqa manbaga murojaat qiladi. Shu sababli xam giperhavoladan foydalangan xolda yozayotgan maqolani shaklan ixcham va, shu bilan birga, sarmazmun matnga aylatirish mumkin. Tezkorlik. Internet boshqa ommaviy axborot vositalariga nisbatan o‘z tezkorligi bilan ajralib turadi. U axborotni gazeta, radio yoki televideniaga qaraganda zudlik bilan yetkazib beradi.

Multimedia. Veb-jurnalistikaning o‘ziga xos ijobiy jihatlaridan biri uning multimedia xarakterga ega ekanligidir. Ya’ni saytdagi matnni chiroyli rangli suratlar hamda ovoz va videotasvirlar bilan boyitish mumkin. Internet-

jurnalistikaning o'ziga xos xususiyatlari haqida gap ketganda, uning hajm jihatidan kichik shaklli jurnalistika ekanligi ham uqtiriladi. Darhaqiqat, gazetalarda chop etilayotgan ayrim maqolalarni shundayligicha olib, veb-saytga joylashtirish maqsadga muvofiq emas. Bunday maqola o'quvchi diqqatini jalb etmaydi, saytga kiruvchilar unga e'tibor karatmasdan, boshqa matnga o'tib ketishining ehtimoli katta.

Materialni tayyorlash va uni global tarmoqqa joylashtirishdan avval Internet va gazeta matnlarini o'qish bir-biridan farq qilishini inobatga olmoq zarur. Odamlar veb-saytdagi matnni aksar holatda o'qishmaydi, balki sahifani to'lasincha xuddi undan nusxa ko'chirgandek, ko'zdan o'tkazishadi. Xorijda olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maxsus testda qatnashganlarning faqat 16 foizi matnni so'zma-so'z o'qishgan. Shu sababli ham sahifada ajratib ko'rsatilgan so'z va iboralar bo'lmasa, undagi matn o'quvchi diqqatini jalb etolmaydi. O'quvchi tezda boshqa sahifa yoki umuman boshqa saytga o'tib ketadi. Internet katta va keng ko'lamli axborot manbai bo'lganligi bois o'quvchini aynan sizning materialingizni tanlashga undash mushkul vazifa. U o'ziga qiziqish uyg'otmagan sahifadan bir zumda boshqa o'nlab sahifa yoki saytlarga kirishi mumkin. Unda har xolda shunday imkoniyat mavjud. O'quvchi kam hollardagina Internetdagi materialni boshdan oxirigacha o'qiydi. Dastlab sarlavhaga ko'z yugurtirib, maqolaning boshlanishini va ko'zga tashlanuvchi so'zu iboralari bilan tanishadi, diqqatini jalb etgan bo'laklarini o'qiydi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, veb-nashr uchun material yozishda quyidagilarga e'tibor qaratmoq zarur. Sarlavha maqolaning o'ta muhim qismi hisoblanadi. Veb-nashrning muharriri bosilayotgan maqolaning sarlavhasini gazetadagidek qisqa va lo'nda bo'lishiga intilmaydi. Sarlavhaning asosiy vazifasi o'quvchiga maqola haqida imkon qadar to'laroq ma'lumot berish, uni o'ziga jalb etish va maqolani o'qishga undashdan iborat. Shu sababli ba'zi kichik hajmdagi muhim xabarga katta sarlavha qo'yiladi, u saytning bosh sahifasida joylashtiriladi. Odatda xabar yoki maqola haqida veb-nashrning bosh sahifasida yo boshqa saytlarda ma'lumot berilganda ularning sarlavhasi va

boshlanishi, dastlabki bir-ikki jumlasini keltiriladi. Agar ulardagi ma'lumot o'quvchini jalb qilsa, u o'sha materialni o'qiydi, aks holda boshqasiga o'tib ketaveradi. Shu sababli maqolaning kirish qismi (gazetada uni lid deb atash odat tusiga kirgan) to'ntarilgan ehrom qoidasi asosida yozilishi maqsadga muvofiq. Ya'ni, maqolaning mazmunini ochib beruvchi ma'lumot uning dastlabki xatboshi — lidida berilishi lozim. Maqolaning hajmi katta bo'lganda, u kichik sarlavhalar bilan qismlarga bo'linadi va uning har bir qismida to'ntarilgan ehrom qoidasiga amal qilinadi. Internet-nashrdagi maqolani sxematik tarzda quyidagicha tasvirlash mumkin: sarlavha — qisqacha mazmuni bayon etilgan xatboshi (lid) — asosiy matn — maqola mavzusiga doir boshqa materiallarga havola. O'quvchi maqolaning ushbu tarkibiy qismlariga ko'z yugurtirib, yo ularning hammasini o'qiydi yoki ayrimlari bilan tanishgach, boshqa materialga yoki boshqa saytga o'tib ketadi. Shunday ekan, muallifning vazifasi o'quvchining maqolani to'la o'qib chiqib, mavzuga oid boshqa materiallarga murojaat etishga undashdan iborat. Yukorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, zamonaviy texnologiya mahsuli bo'lgan internet-jurnalistika sohada qalam tebratishga bel bog'laganlardan o'ziga xos kasb mahoratini talab etadi. Bu o'qish, o'rganish, o'z ustida mustaqil ishlash masalasini dolzarb qilib qo'yimokda.

Internet yordamida ma'lumot topish kerak bo'lganda ko'pincha "google" qidiruvidan foydalanaman. Ba'zan ish osonga ko'chadiyu, ba'zan umuman boshqa ma'lumotlarni taqdim etishi asabni buzadi. Mana, topdim, deb navbatdagi manzarga kirimoqchi bo'lganimda u qolib, qandaydir msn.com ga tushib qolaman. Sabab saytga blok qo'yilgani, ya'ni kirish va foydalanish taqiqlangani!

Virtual olamda cheklovning turli ko'rinishlari mavjud. Rasmiy bo'lmagan oddiy saytlarning ba'zilarida ham bir qancha ochiq-yopiq qismlar bo'ladi. Masalan, saytning barcha uchun ochiq qismiga "Mehmonlar" foydalanuvchilar kira oladilar. "Mehmon"lar uchun yopiq qismi ham borki, ur qismga foydalanuvchisiga aylanish uchun ro'yhatdan o'tish kerak. Saytlarda maxsus q

ham bo'lib, bunga ba'zi guruh foydalanuvchilari kira oladilar. (misol uchun, diniy saytlarning "Muslima" bo'limiga faqat qizlar kiritilishi, moderatorlar paneli).

Bu internetning eng oddiy cheklovi. Bundan tashqari, tijorat maqsadida reklama oldi blok ham qo'yilishi kuzatilgan. Bu ko'pincha auditoriyasi ko'p saytlarda bo'lib, reklamaning kichik oynasini (o'qiysizmi-yo'qmi) o'chirmasdan, ortidagi ma'lumotdan voqif bo'lolmaysiz.

Asosiysiga endi keldik. Ba'zi saytlar ko'rish va ma'lumotlarini o'qishni taqiqlash maqsadida siz uchun yopiq bo'ladi. Internet rivojlangan sari, taqiqlar ham ko'payib bormoqda. Bir necha davlat mutaxassislari mazkur xolatga ijobiy qaraydilar. Aytishlaricha, bu internet tarmog'iga e'tibor va nazorat. Bu - "sozlash", "tozalash", "tartibga keltirish" deb talqin qilinayotgani bilan, internet foydalanuvchisi uchun birgina so'z - "senzura" bo'lib qolaveradi.

Vaziyatga xolis qarash uchun, saytlar nima maqsadda blok qilinishini anglab olish kerak. Blok qilinadigan saytlar turlicha. Ularning bir turi radikal ruhdagi, siyosatga "aralashgan", boshqa davlatlarga axborot xuruji o'tkazgan veb sahifalardir. Bunday saytlarga "e'tibor" qaratish har bir davlatda bor, xavfsizlik chorasini muhim siyosatga aylangan. Jumladan, Toni Bler internetda tartib o'rnatish tarafdori ekanligini bir necha bor bayon qilgan. Rossiyada ham academ.org sayti, "Сибирь Телеком" , "Академтелеком", "Полимеркс плюс", "Первая миля" tuman provayderlari foydalanuvchilar uchun yopiq. Xitoyda internet uchun "firewall" degan tushuncha bo'lib, bu "yong'indan himoyalovchi devor" degan ma'noni bildiradi. Bu internetni viruslardan, "xakker"lardan va hazil qilib aytganda, foydalanuvchilardan himoyalashdir. Xitoyda va Eronda hattoki Wikipedia sayti ham blok qilingan. Kubada ma'lum qatlam, masalan mediklarga internetdan foydalanish ruxsat etilgan bo'lsa, Shimoliy Koreyada faqat hukumat va partiya saytlari ochiq hisoblanadi.

Dunyodagi ko'plab mamlakatlarning hukumatlari internetdan erkin foydalanishni cheklashga urinayotgani sababli, AQShdagi Global masalalar bo'yicha Davlat kotibining o'rinbosari Paula Dobrianskiy xususiy sektorni internet

tarmog'iga qo'yilayotgan cheklovlariga qarshi turishga chaqirdi. Tilga olganimiz Xitoy, bundan tashqari, Misr, Kuba kabi davlatlar internetdan erkin foydalanishni cheklagani uchun xalqaro hamjamiyatning tanqidiga uchradi.

O'zbekistondan bir necha saytlarga kirish mumkin emas. Avvallari BBC va Amerika ovozi xizmatlarining elektron variantidan foydalana olar edim, hozir bular ham msn.com ga kuzatadigan bo'ldi.

Internet keng ommaga kirib bormoqda, taqiqlarga ehtiyoj sezilmoqda, shu bilan birga internet foydalanuvchilari ham uddaburon bo'lib qoldi. Kirish mumkin emas ekan, deb jim o'tiradi deysizmi? Hammasini "proxy" saytlar hal qildi. Buning yordamida siz istagan yopiq saytga kirar ekansiz, veb manzil yoziladigan joyda ham proxy sayt adresi bo'ladi. IP orqali tekshirilganda ham, yopiq sayt manzili ko'rinmaydi. (ehtiyot shart-da). Lekin baribir proxy o'zidek bo'lolmas ekan. Tegishli joyga aniq sayt manzilini yozsangiz topiladi, saytning biror ma'lumot joylashgan qismini "ssilka" qilib bersangiz, yana: "The page can not be found".

Yana biri, davlat hududidan blok qilingan forumlarga kirishingiz mumkin, a'zo bo'lolmaysiz. Masalan, O'zbekistondan forum.arbuz.com ochiq emas. Proxy sayt orqali kirib, ro'yhatdan o'tasiz, a'zoligingizni tasdiqlash bosqichi esa elektron pochtingizga yuboriladi. Buyurilgan manzillarga murojaat qilganingizda: "Page under construction".

Xuddi internetni nazorat qiluvchi va internetdan foydalanuvchi o'rtasida kim o'zarga bahs boshlanganga o'xshaydi. Blok qilingan saytlar haqidagi saytlar ham ochildi. Unda boshqa saytda ta'qiqlangan narsa ochiq-oydin ko'rsatiladi. Ta'qiqlangan fotosuratlar namoyish qilinadigan bir saytga tashrif buyurganimda, hayron qoldim. Nega taqiqlashdi? Deyarli oddiy rasmlar: manzaralar, masjid-madrassa, cherkovlar. Balki gapning tagida gap bordir, men uqib ololmadim.

Inson ruhiyati shunaqa. Ba'zan negativ informatsiyaga, taqiqlangan narsaga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun, saytlarning blok qilinishi hech bir foydalanuvchiga yoqmasa kerak. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Ba'zi saytlar uchun ikki martalab cheklov o'rnatilishiga tarafdorlik qilgan bo'lardim. Chunki hozirgi

kunda porno-saytlar, o'z joniga qasd qilish usullari va sigaret chekishni o'rgatuvchi virtual "dars"lar, vahshiy o'yin saytlari, alkogol va tamaki mahsulotlari ish chiqaruvchi korxonalarning shaxsiy veb-saytlari ko'payib ketgan. Ayni pornografik saytlar eng o'quvchisi ko'p va serdaromadiga aylandi. Yopiq porno-saytlar uchun ochiq porno-sayt, "pornoyulduz" atamasi paydo bo'la boshladi. Ahvol shu darajaga yetdiki, avvallari jiddiy saytlarning bir chetiga behayo sura qo'yiladigan bo'lsa, endi porno-saytlarga huquqiy va siyosiy mavzudagi materiallarni joylashtirish, to'g'rirog'i "tiqishtirish" udum bo'ldi. Parlan qonunlariyu, bunday saytlarga tinmay qulf qo'yish yechim bermasligi ham a bo'ldi. Ammo bu kurashni to'xtatish kerak degani emas.

Ma'lumot uchun, O'zbekistonning internet kafelarida porno-saytlarga tas buyurganlarga jarima solish haqida rasmiy e'lon mavjud. Shuningdek, " domenida yoki O'zbekistonda joylashgan xosting maydonlarida pornografik say ochish mumkin emas.

Demak, virtual taqiqlarning ham inkor qilib bo'lmaydigan tomonlari ekan. Cheklov turlari haqidagi gapimizni davom ettirib, ta'kidlashimiz kera internetdagi ba'zi saytlar idora doirasida ham blok qilinadi. Ko'p davlat ofislari chat xizmatlari, ko'ngilochar va bir qancha bloggerlarning sayti yopiq hisoblanadi.

Internet endi-endi hayotga kirib kelayotgan paytlari unga berilgan ta'rif ichida "senzura o'tmaydigan OAV" degani ham bor edi. Hali ham fikrdamizmi? Isbotlashingiz mumkin, axir elektron jurnalist o'zi yozib, joylashtiradiku, deb. To'g'ri, gazetada chiqadigan material muallifdan so'ng bo muharriri, bosh muharrir, musahhih, harf teruvchi kabi bir necha shaxslar qo'lidan o'tadi. Televideniye misolida bu ro'yhatni ikki qayta sanab chiqsa h kam. Boshqa OAVlarda tayyorlangan mahsulot ming chig'iriqdan o'tib, e qilinmay qolishi ham mumkin. Internetdachi? Chiqqan maqolaga to'siq qo'y mumkin emas deb o'ylaysizmi? Aksincha, bu osonroq. Ko'rsatiladigan sababi h oddiy – "texnik nosozlik".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI :

1. Karimov I.A. «Milliy idtiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». T.: «O'zbekiston», 2001.
2. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». T.: 1997.
- 3.
4. O'. Tolipov. «Etikada umuminsoniy masalalar». T.: «Fan», 2005.
- 5.
6. Saidov U. «Axborot kommunikasiyalarida estetika masalalari». T.: «Tamaddun», 2008.